



QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANRIRISH

Xalmuratov I.T.

QQDU, tayanch doktranti

Tayanch so'zlar: innovasion faoliyat, ta'limiy qadriyatlar, motivatsion mezonlar, kongnitiv mezonlar, texnologik mezonlar, ijodiy mezonlar, kreativ ko'nikmalar, refleksiya.

Ключевые слова: инновационная деятельность, образовательные ценности, мотивационные критерии, когнитивные критерии, технологические критерии, творческие критерии, творческие способности, рефлексия.

Key words: innovative activity, educational values, motivational criteria, cognitive criteria, technological criteria, creative criteria, creative abilities, reflection.

Резюме: Mazkur maqolada talabalarning innovasion faoliyatini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvlarni asosan, qoraqalpoq amaliy san'atini asosiy vosita sifatidagi ahamiyati, shuningdek, innovatsion faoliyat talabaning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirish masalalari ochib beriladi.

Резюме: В данной статье представлены ценные подходы к развитию инновационной деятельности студентов, главным образом значение прикладного искусства каракалпакии как основного инструмента, а также приобретение теоретических знаний, практических навыков и квалификации на основе направленности духовные, умственные и физические силы студента к определенной цели раскрываются вопросы дополнения практической деятельности теоретическими знаниями, развития знаний, дизайна, коммуникативной речи и организаторских способностей.

Summary: This article presents valuable approaches to the development of students' innovative activities, mainly the importance of applied art of Karakalpakstan as the main tool, as well as the acquisition of theoretical knowledge, practical skills and qualifications based on the orientation of the student's spiritual, mental and physical strength to a specific goal, reveals the issues of supplementing practical activities with theoretical knowledge, developing knowledge, design, communicative speech and organizational skills.

Bugungi kunda yangilangan jamiyat ma'naviy, intellektual qadriyatlari, xalqning boy an'analari, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar, fan, texnika, texnologiyalar yutuqlariga tayangan holda, shuningdek, ma'naviy-axloqiy an'analaini qayta tiklash va rivojlantirish asosida rivojlanadi.

Qadriyatlarning aynan insonning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishida va pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatni o'rganish zarurdir. Bunday qadriyatlardan biri ta'limiy qadriyatlar hisoblanadi. "Ta'limiy qadriyatlar" shaxsga ilmiy – nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo'lib boyaga etishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek, o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar mavjud.

Zamonaviy ta'limga xos jihatlardan biri- talabalar faoliyatining innovasion xarakter kasb etishiga erishish hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra innovasiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatiladigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Shuningdek, hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat-bu ishlab chiqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zini keyingi innovatsion rivojlanish samaradorligini oshirish maqsadidan tizimli ravishda o'zgartirish, ishlab chiqarishning yangi yoki yangilangan usuli va uni tashkil etish tufayli mahsulotning yangi sifatini olish uchun ilmiy, texnik va intellektual salohiyatdan foydalanish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi.

R.N.Yusufbekova innovasiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tibor qaratadi. Xususan, pedagogik innovasiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib keladigan pedagogik hodisalarning o'zgarib turishi mimkun bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlarini olib borish, fan - texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Talabalarning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatining rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat talabani ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish,



loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

R.N.Yusufbekova pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzulmasi uchta:

1. Sohada namayon bo'layotgan yangiliklarni ajratib ko'rsatuvchi blok;
2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishini ifodalovchi blok;
3. Yangiliklardan foydalanish va uni joriy etish bloklardan iborat deb hisoblaydi.

M.M.Potashnik innovatsion jarayonlar mohiyatini quyidagi tuzulmalarga egaligini ko'rsatadi. Ular: faoliyat tuzulmasi, sub'ektiv, darajali, g'oyaviy, davriylik, boshqaruv, tashkiliy tuzulmalari. Innovatsion jarayon tarkibiy tuzulmalar bilan bir qatorda muayyan qonuniyatlarga ham bo'ysinadi. Mazkur jarayon uchun to'rtta qonuniyat:

1. Pedagogik innovatsion muhitning keskin beqarorlik - pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar o'zgaradi, yangilik baholanadi, bu yangilikning ahamiyati va qiymati ko'rsatiladi;

2. Amalga oshish - yangilikning hayotiligini ko'rsatadi, pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o'ta tezkor ravishda amaliyotga tadbiq etiladi;

3. Qoliblashtirish - aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligi;

4. Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi - yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishi.

Innovatsiyalarni tadbiq etish bosqichlari sifatida: muammoni tahlil asosida aniqlash, mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini aniqlash, o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish, o'zgarishlarni amalga oshirish bosqichlari keltirib o'tish mumkin.

Pedagoglarning kasbiy faoliyatga innovatsion yondasha olishlari ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlash bilan birga ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga, talabalarda bilish faolligini ko'chaytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda talabalarining innovasion faoliyat bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Talabalar tomonidan innovasion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovasoin yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra talabalar tomonidan innovasion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovasion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir nacha bosqichda kechadi.

Talabalarining innovasion faoliyatini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvlarni asosan, qoraqalpoq amaliy san'atini asosiy vosita sifatida qarash mumkin. Qoraqalpoq amaliy san'atini o'rganish amaliy mashg'ulotlar, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulorlarda hamda amaliy san'atga oid tadbirlar jarayonida amalga oshiriladi.

Kashtachilik san'atida hamda dizayn sohasida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi, innovatsion jarayonlarning vujudga kelishi bilan kasbiy ta'lim mazmunini ham albatta milliy badiiy san'at sohasidagi eng ijobiy an'analarni inobatga olgan holda intensiv takomillashishi va vujudga kelayotgan yangi shart-sharoitlarga moslashishi kerak bo'ladi. Zamonaviy kashtachilik san'ati talaba –qizlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda yangi texnika va texnologiyalar integratsiyasiga asoslanishini taqoza etadi.

Kashtachilik mahsulotlarini loyihalashtirish va tayyorlashda ko'ptarmoqli badiiy bilimlarni ajratib olish va integratsiyalashning mezonlari bo'lib konstruksiyalarning texnologiyalashganligi, yaratilgan kolleksiyalarning istiqbolga ega ekanligi, ijodiy g'oyalarning yangiligi, yangi texnologiyalar va materiallarda foydalanishga xizmat qilishi lozim.

Talabalarni hunarmandchilikka o'rgatish jarayonini zamonaviylik bilan uyg'inashtirish lozim. Globallashtirish va integratsiya jarayonlarining kuchayishi milliylikni saqlab qolgan holda zamon bilan hamnafas bo'lishini taqoza etadi. Shuningdek, talabalar hunarmandchilikka o'rgatishda milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va madaniyatga tayanish lozim. Mazkur maqsadga erishish uchun YUNESKOning "Hunarmandchilik mahsulotlari uchun sifat belgisi" dasturi qabul qilingan. Mazkur dastur milliy an'ana va qadriyatlar, milliy hunarmandchilikka zos moharatni saqlash va kelgusi avlodga uzatish uchun innovatsion yondashuvlar asosita hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarayotgan hunarmandlarni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi.

AKT asosida talabalarni hunarmandchilikka o'rgatish aniq mezonlarga asoslanishini taqoza etadi:

- Motivatsion mezonlar: ta'lim jarayonida o'z qarashlarini o'zgartirishga intilish; kasbiy faoliyat maqsadini anglab yetish; kasbiy yangiliklarni qabul qilish, o'zlashtirish.
- Kongnitiv mezonlar: kasbiy-pedagogik bilimlarga ega bo'lish; texnik innovatsiyalar mohiyatini bilish va amalda qo'llash.
- Texnologik mezonlar: kasbiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish; modellarni loyihalashtirishda yuzaga keladigan xavflarni bartaraf etish.
- Ijodiy mezonlar: kreativ ko'nikmalar; refleksiya.



Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda innovatsion ma'ruzalar tashkil etish o'zining qator afzal jihatlari bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, talabalarni hunarmandchilikka o'rgatishda ma'ruza mashg'ulotlarining bunday shakli talabalarning bilimlarni o'zlashtirishda maruzaga doir mavjud ziddiyatlar va muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini izlab topish, g'oyalarni eskiz, chizma ko'rinishlarda taqdim etish loyihani aniqlashga yo'naltirish zarur. Bu erda didaktik birlik mashq amallarining uchligidan iborat: bilimlarni egallash-muhim kasbiy ehtiyojlar asosida ziddiyatlar va muammolarni aniqlash- ularni yechish variantlarini izlash va topish, loyiha mavzusini ifoda etish tizimi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли фармони. www.Lex.uz.
2. Поташник М.М. Инновационные школы России: становление и развитие. Опыт программно-целевого управления: Пособие для руководителей общеобразовательных учреждений/ Вступ. Ст. В.С.Лазарева. –М.:»Магистр», 1997